

Davlatlararo va mamlakat ichidagi yo'nalishlarda harakatlanuvchi poyezdlar, shuningdek yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" poyezdida harakatlanish uchun naqdsiz hisob-kitob asosida yo'l hujjatlarini (chiptalarni) rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish

SHARTNOMASI

№ 444-3070

Toshkent shahar

08.01. 2022 y.

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ yo'lovchi tashishni tashkil etish bo'yicha Toshkent filiali nomidan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi filial boshlig'i M.B.Mamaraimov (bundan keyin, matnda "**Bajaruvchi**" deb ataluvchi) bir tomondan va "KIT va TRIATM" JSC nomidan _____ asosida harakat qiluvchi _____, (bundan keyin "**Buyurtmachi**" deb ataluvchi) ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. "**Bajaruvchi**" "Buyurtmachiga", davlatlararo va mamlakat ichi yo'nalishidagi poyezdlar, shuningdek yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" poyezdida harakatlanish uchun naqdsiz hisob-kitob asosida yo'l hujjatlarini (chiptalarni) rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi.

1.2. "**Buyurtmachi**" tuzilgan shartnoma asosida sotib olish vaqtida amal qilgan narxlarda "**Bajaruvchi**" ga yo'l hujjatlari uchun 100% miqdorda oldindan to'lovni amalga oshiradi.

1.3. "**Buyurtmachi**" barcha turdagi yo'l hujjatlarini buyurtmanoma asosida sotib oladi.

2. Shartnoma shartlari

2.1. "**Buyurtmachi**"ning buyurtmanomasiga ko'ra "**Bajaruvchi**" alohida yo'lovchilar guruhini (10 kishi va undan ortiq) tashishga yo'l hujjatlari rasmiylashtirilishini amalga oshiradi, bunday buyurtmanomalar "**Buyurtmachi**"dan poyezd jo'nab ketishidan kamida 20 kun oldin qabul qilinadi.

2.2. "**Buyurtmachi**", rahbar va bosh hisobchi tomonidan imzolangan va yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan buyurtmanomani taqdim etadi. Unda, yuridik shaxsning, ya'ni "**Buyurtmachi**" ning nomi, talab qilinayotgan joylar soni, jo'nab ketish sanasi, jo'nab ketish va yetib borish stansiyalari ko'rsatiladi. Buyurtmanomaga, jo'nab ketayotgan guruh a'zolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport seriyasi va raqami, tug'ilgan yillari ko'rsatilgan ro'yxatlari 2 nusxada ilova qilinishi kerak.

2.3. "**Buyurtmachi**"yo'lovchi poyezdi jo'nab ketishidan 10 kun oldin, yo'l hujjatlarining to'liq qiymatini to'lagan holda buyurtma qilingan yo'l hujjatlarini sotib olishi shart. Yo'lovchi poyezdi jo'nab ketgunga qadar yo'l hujjatlari belgilangan muddatda "**Buyurtmachi**" tomonidan sotib olinmagan taqdirda, buyurtmanoma bekor qilinadi va joylar sotuvga topshiriladi.

2.4. Temir yo'l hujjatlarini 10 tadan kam kishiga rasmiylashtirayotgan "**Buyurtmachi**", yo'l hujjatlarini shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatlarda xarid qiladi.

2.5. Foydalanilmagan yo'l hujjatlari "**Buyurtmachi**" tomonidan qaytarilgan taqdirda, qaytarish summasi, "Yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalari" asosida "**O'ztemiryo'lyo'lovchi**" AJ ma'muriyati orqali da'vo tartibida amalga oshiriladi.

2.6. "**Buyurtmachi**" tomonidan sotib olingan guruhli va guruhsiz yo'l hujjatlari uchun to'lovlar, vokzallardagi chipta kassalari tomonidan qaytarilmaydi. Yo'l hujjatlari sotish avtomatlashtirilgan tizimi orqali naqdsiz to'lov asosida rasmiylashtirilgan yo'l hujjatlari bo'yicha to'lovlarning qaytarilishi, tashuvchi tomonidan e'tiroz tartibida, joylarni tizimga majburiy qaytarish sharti bilan qaytariladi.

3. Hisob-kitob tartibi.

3.1. "**Buyurtmachi**" "**Bajaruvchi**" ga, 9 kishigacha (guruhsiz) va 10 kishi va undan ortiq (guruhli) yo'lovchilar uchun temir yo'l xizmatlari haqini, shu jumladan QQS ni hisobga olgan holda buyurtmanoma uchun belgilangan yig'imni buyurtmanomada ko'rsatilgan joy soniga asosan to'lab beradi.

3.2. "**Buyurtmachi**" ga yo'l hujjatlarini sotish "**Bajaruvchi**" ning kassalari orqali, "**Buyurtmachi**" da yo'l hujjatlarini olish uchun ishonchnoma, "**O'ztemiryo'lyo'lovchi**" AJ xisobxonasining belgisi qo'yilgan to'lov topshiriqnomasi, buyurtmanoma va shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, guruh ro'yxati) mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

3.3. Foydalanilmagan yo'l hujjatlari "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yo'lovchilar, bagaj va yuk bagaj tashish qoidalari"ning 207, 213 bandlariga muvofiq qaytarilganda, "**Buyurtmachi**"dan, qaytarish muddatiga ko'ra ushlab qolinadigan summasi va qaytarish operatsiyalari uchun "**O'ztemiryo'lyo'lovchi**" AJ rahbariyati tomonidan belgilangan yig'imlar summasi ushlab qolinadi.

Chipta kassasiga topshirilgan foydalanilmagan temir yo'lda harakatlanish hujjatlari (chiptalar) uchun pul mablag'larini qaytarish "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ filialining **20210000404705474001** hisob raqamidan amalga oshiriladi. "O'ztemiryo'Iyo'lovchi" AJ ning hisob raqamidagi ishlatilmagan pul mablag'larining qaytarilishi, ikkala tomon tarafidan o'zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasini imzolagan holda "O'ztemiryo'Iyo'lovchi" AJ **20210000203717281001** hisob raqamidan qaytariladi.

3.4. "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ yirik soliq to'lovchilar toifasiga kirganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 20-moddasiga asosan, QQS hamda daromad solig'ini alohida bo'linmalarni hisobga olib, markazlashgan holda "O'zbekiston temir yo'llari" AJ orqali soliq hisobotini taqdim etadi va soliqlarni (yig'imlarni) to'laydi. Shuning uchun "O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ shartnoma va hisob-varaq fakturalarni "O'zbekiston temir yo'llari" AJ nomidan (201051951 STIR va 202472894 STIRni ko'rsatgan holda) Faktura.uz sayti orqali buyurtmachiga yuboradi. Buyurtmachi temir yo'l chipta uchun to'lovlarni ushbu shartnomaning 6-bandida ko'rsatilgan rekvizitlar orqali amalga oshiriladi.

4. Tomonlarning javobgarligi, nizolarni xal etilishi.

- 4.1.** "Bajaruvchi" temir yo'l hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javob beradi.
- 4.2.** Yo'l hujjatlarini rasmiylashtirish uchun zarur bo'lgan taqdim qilinayotgan buyurtmanoma ma'lumotlari, pasport ma'lumotlarining to'g'riligiga "Buyurtmachi" javob beradi.
- 4.3.** "Buyurtmachi" tomonidan ko'rsatilgan sanaga davlatlararo va mamlakat ichidagi yo'nalishlarda harakatlanuvchi poyezdlar, shuningdek yuqori tezlikda harakatlanuvchi "Afrosiyob" poyezdiga bo'sh joylar bo'lmagan shartda, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" ga mazkur shartnomaning shartlarini bajarishni rad etishga haqli.
- 4.4.** Tomonlarning mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari, O'zbekiston Respublikasi FK va 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq qo'llaniladi.

5. Yakuniy qoidalar

- 5.1.** Mazkur shartnomani tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi. Xizmatlar ko'rsatish qismida shartnoma **04.01.2022y.** dan **31.12.2022y.** gacha bo'lgan davrda, oxirgi sanani ham hisobga olgan holda amal qiladi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashiga, buyurtmanoma berilgan, lekin ko'rsatilmagan xizmatlar mavjud bo'lganida, shartnomaning barcha shartlari bunday xizmatlar lozim tarzda ko'rsatilgunga qadar amal qiladi (uzaytiriladi).
- 5.2.** Ushbu shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgarish va qo'shimchalar, faqatgina yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar tarafidan imzolanganida haqiqiy hisoblanadi.
- 5.3.** Mazkur shartnomani bajarish jarayonida vujudga keladigan barcha nizolar, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq muzokaralar yo'li bilan, yohud iqtisodiy ishlar sudida xal etilishi mumkin.
- 5.4.** Ushbu shartnoma bir tomonlama tarzda bekor qilinmaydi.

6. Tomonlarning yuridik manzillari, rekvizitlari va imzolari.

"BAJARUVCHI"

"BUYURTMACHI"

"O'ztemiryo'lyo'lovchi" AJ

700060 Toshkent sh.Turkiston ko'chasi.7-uy,

Ma'lumot uchun 1005 rel 236-45-22.

236-45-23 (kassa)

O'zR TIF Milliy banki Mirobod bo'limi

To'lovlar uchun:

x/r 2021 0000 6037 1728 1003

MFO 00875. STIR 202 472 894

Hisob-varaq faktura uchun:

x/r: 2021 0000 6037 1728 1003

MFO 00875. STIR 201 051 951

OKED 49100. QQS kodi 326010005344

Mamaraimov M.B.

manzil _____
tel _____
x/r _____

MFO _____
STIR _____
OKED _____

